

KORONAVIRUSNING BUGUNGI KUNGA TA'SIRI

Gavharova Gulyuz Sundor Qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada koronavirusning tarqalishi hamda uning bugungi kundagi ta'siri yoritiladi. Jumladan, ta'lim, iqtisodiyot, turizm kabi sohalarda tutgan o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *COVID- 19 (koronavirus)pandemiya, vaksinatsiya, karantin, epidemiya*

Hech kimga sir emaski, yaqin bir necha yilda butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 pandemiyasi O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi. Ushbu virus ilk bor 2019-yilning 17-noyabrida Xitoyning Uxan shaharida qayd etilgan. Shundan so'ng koronavirus qator davlatlarga tez sur'atda tarqaldi va juda ko'p insonlarning umriga zomin bo'ldi. Bu virus O'zbekistonni ham chetlab o'tgan emas. Yurtimizda COVID-19 ilk bor 2020-yilning 15-mart sanasida aniqlangan. Shundan so'ng jadal sur'atlar bilan tarqalgan ushbu virus mamlakatda epidemiologik vaziyatni yuzaga keltirdi. Butun O'zbekiston "karantin" holatiga o'tdi. Aholi salomatligini saqlash maqsadida bir qator majburiy qonunlar joriy etildi. Biroq shunga qaramay mamlakatimizda 2020-yil 27-mart sanasida 72 yoshli ayol ushbu virusning qurboniga aylandi. O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligining statistika ma'lumotlariga qaraganda yurtimizda koronavirusga chalinganlar soni 198769 kishini tashkil etgan, shundan 195840 nafar kishi to'liq tuzalgan bo'lsa, 1485 kishi bu virus tufayli vafot etgan.

COVID-19 nafaqat katta yoshdagi insonlar, balki voyaga yetmaganlar orasida ham qayd etilgan. Bunda bolalarning ko'rsatkichi bir kunda ro'yxatga olinganlarning 26,2 foizini tashkil etadi. Lekin bunga mamlakatlar shunchaki qarab turgani yo'q. Tez tarqaladigan ushbu virusga qarshi juda ko'plab davlatlar vaksinalar yaratdi va mamlakat aholisini COVID-19ga chalinmaslik va yoki chalinganda ham yengil o'tishi uchun emlash jarayonini boshladi. Vaksinatsiya jarayoni O'zbekistonda 2021-yilning 1-aprelida boshlandi va 3 dozada ya'ni sentabr, oktabr va noyabr oylarida amalga oshirildi.

Butun dunyo miqyosida COVID-19ning 2023-yil yakunlanishi haqida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) vaziri Tedros Ghebreyesus habar bergan.

Biroq ushbu virus bilan kasallanib tuzalganlar orasida bir qancha turdagi salomatlik muammolari yuzaga kelmoqda. Xususan, o'pka, yurak va eng asosiysi miya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar ko'paydi. Ayniqsa, COVID-19ga chalingan ayol va qizlar o'rtasida farzand dunyoga kelgandan so'ng bolalarning salomatligi yomonlashishi yoki nogiron tug'ilishi, sog'lom tug'ilganda ham keyinchalik asoratini namoyon etishi kuzatilmoqda. Darhaqiqat, ayrim bolalar yurak parogi, ayrimlari esa miyaning sust ishlashidan aziyat chekmoqda. Bundan tashqari, COVID-19 asorati

bolalarning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Masalan, bolalarda organlar harakati va o'sish jarayoni sustlashmoqda ya'ni tishning kechikib chiqishi, oyoq bosish, sochlarning juda sekin chiqishi va yurish jarayoni nisbatan kechikmoqda.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, pandemiya holati dunyo miqyosida globalizatsiya jarayonining sekinlashishi, shuningdek, turizm, savdo va integratsiya, diplomatik aloqalar, ta'lim kabi sohalarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Turizm va madaniy meros:

O'zining boy madaniy merosi va tarixiy obidalari bilan dunyoga mashhur O'zbekistonning asosiy daromadlaridan biri aynan turizm va madaniy merosi. Ammo pandemiya jarayonida chegaralarning yopilishi, sayohat cheklovlari hamda tashqi va ichki qatnovlarning to'xtatilishi bu sohadagi davlat budjetiga kiradigan daromadni chekladi. Biroq koronavirusdan keyingi davrda mamlakatimizda strategik marketing, infratuzilmalarni rivojlantirish hamda ma'sulyatli va barqaror turizm industriyasini qayta tiklashga, xususan, eski turizm markazlarini rivojlantirish, insonlarga yot bo'lib ketgan dargohlarni tiklash va yangi madaniy markazlarni bunyod etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bundan tashqari, sayohatchilar xavfsizligini ta'minlash, mamlakatda o'ziga xos diqqatga sazovor joylarini yaratish hamda malakali va o'z sohasining mutaxassis gid xodimlarini tayyorlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali turizmni yanada rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan.

Savdo va integratsiya:

O'zbekiston iqtisodiyoti dunyo miqyosidagi boshqa davlatlar singari pandemiya davrida muvofaqiyatsizlikka duch keldi. Bu davrda import va eksport qilish holatlari to'xtatildi. Biroq bu vaziyat hukumatning iqtisodiy rag'batlantirish paketlari va infratuzilmalariga investitsiyalar kiritish kabi faol choralarni rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va texnologiyalarga e'tibor qaratgan holda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, pandemiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatishda manfaatli ekanligini ko'rsatdi. Yurtimizda integratsiyaning yangi tarmoqlari yaratildi. Koronavirusdan keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish g'oyasi ilgari surildi. Ichki va tashqi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, yoshlarni biznes va tadbirkorlikka jalb etishga alohida ahamiyat qaratilib, ularga katta imkoniyatlar berildi.

Diplomatik aloqalar:

COVID-19 pandemiyasi davrida mamlakatlar o'rtasida kirish-chiqish holatlari to'xtatildi. Shu sababli davlatimiz bu davrda bir qancha muammolarga duch keldi. Xususan, sayohat cheklovlari, iqtisodiy noaniqliklar, vaksinalar taqsimotidagi nomutanosiblik holatlari diplomatik to'siqlarni keltirib chiqardi. Biroq O'zbekiston vaziyatga to'g'ri yondashgan holda xalqaro hamkorlik va munosabatlarni davom ettirish maqsadida raqamli diplomatiyani qo'lladi. Virtual sammitlar, diplomatik uchrashuvlar hamda onlayn konferensiyalarni odatiy holda saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, qo'shni davlatlar va muhojirlarga yordam ko'rsatishda peshqadamlik

qildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) bilan pandemiyaga qarshi samarali choralarni ko'rish uchun zarur bo'lgan tajriba va resurslardan foydalanish uchun yaqindan hamkorlik qildi. Bu esa O'zbekistonga asosiy ittifoqchilar bilan aloqalarni mustahkamlash va global birdamlikni rivojlantirishga imkon berdi.

Ta'lim:

Boshqa ko'plab davlatlar singari O'zbekistonda ham virus yuqish xavfini kamaytirish uchun ta'lim muassalarini vaqtincha yopish va ta'lim tizimini an'anaviy holatdan masofaviy holatga o'tkazishni belgiladi. Talabalar va o'qituvchilarning xavfsizligini taminlash maqsadida maktablar, kollejlar hamda universitetlar vaqtinchalik masofadan o'qitishga biriktirildi. Biroq, masofaviy ta'lim o'quvchi va muallimlar uchun ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Yurtimizdagi ayrim chekka hududlarda mobil qurilmalar hamda raqamli texnologik infratuzilmalardan foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjudligi sababli o'quvchilarda darsda faol ishtiroki etish ko'rsatkichi juda past bo'ldi. Bu esa onlayn ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir ko'rsatdi. Biroq, ta'lim tizimining sifati oshishi uchun Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashabbusi bilan maktab o'quvchilari uchun onlayn maktab telekanali tashkil etilib, sinflar kesimiga mo'ljallangan video darsliklar tashkil qilinib efirga uzatildi. Bu ham ta'lim samaradorligini oshirishga yordam berdi. Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, ko'pchilikka notanish bo'lgan bu ta'lim tizimi koronavirus pandemiyasi tufayli xalqimizga tanish bo'ldi. Hozirda, masofaviy bo'lgan bu tizim rivojlandi hamda tajribali va malakali ustozlardan onlayn ta'lim olish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa insonlarning vaqtini, pulini va energiyasini bir muncha tejashga yordam bermoqda. Ya'ni ta'lim olish uchun ma'lum hududga borish, unga ketadigan vaqt va transport uchun hech qanaqa harajat qilishning hojati yo'q. Buning o'rniga shu vaqt davomida ma'lum bir ko'nikmani o'rganish mumkin.

Umuman olganda "Uchinchi jahon urishi" deya e'tirof etilgan koronavirus mamlakatimiz rivojida ma'lum salbiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgan bo'lsada, rivoji uchun ham muhim rol o'ynadi deb aytsam mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

<https://uz.m.wikipedia.org>

<https://Uzbekistan.un.org>

<https://www.internationalegg.com>